

MARKAZIY OSIYONING ANTIK DAVR ME'MORCHILIGI

(MIL. AV. IV –MIL. IV ASRLAR)

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Abdullayev Zohidjon

Annotatsiya: Ushbu maqolada Antik davr shaharsozlik va me‘morchilikdagi o‘zgarishlar, Baqtriya shaharsozligi – (Xalchayon, Ayrtom, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Marg‘iyonaning Erkqal‘a (Marv) va Parfiyaning Niso), Xorazmdagi shaharlar tuzilishi, me‘morchiligi, binolari va ularning badiiy hususiyatlari haqida yozilgan.

Kalit so`zlar: ellistik davr, bezak, yunon klassik san‘ati an‘analari, memoriy majmualar, bo`rtma tasvirlar, haykaltarosh, saroylar, zardushtiylik va buddaviylik dinlari.

O‘rta Osiyoning ellistik dunyoga tortilishi uning san‘ati va madaniyatida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o‘zgarishlar me‘morlik, amaliy va tasviriy san‘at mazmuni va harakterida namoyon bo‘la boshladi. O‘rta Osiyoning ellistik davrdagi me‘morligi harakteri uning janubiy rayonlarida seziladi. Bu davrda qurilgan binolar harakterida Axmoniylar davri me‘morligi uslublari bilan birga, grek san‘ati an‘analari mavjud. Ayniqsa, binolarning dekorativ bezalishida shu o‘ziga xoslnk ko`zga tashlanadi. Ustunlari grek klassik formasida ishlangan bo`lib, korinf kapitellari toshdan ishlangan tosh ustun va bazadan tashkil topgan. Saroy xonalari plyastrlar bilan bezatilgan. Saroy uchun bezak sifatida sher niqob, tomni bezab turuvchi palmetkali antisfinkslar ishlatilishi ham harakterlidir. Lekin saroyni qurishda mahalliy material - xom g`isht, paxsa ishlatilgan, tomlari tekis qilib yopilgan. Me‘morchilik san‘atida avvalgidek asosan xom g`isht asosiy qurilish materiali sifatida ishlatilsa ham, shu bilan birga qumtosh, marmar va pishiq g`isht ishlatila boshlandi, devor pardoziga mahsus qorishmalar, alebastri qoplamlalar kirib

kela boshladi. Ayniqsa grek me'morchilik san'ati ta'sirida qurilgan saroylar, gimnasiya, ibodatxonalar me'morchilik jarayonida muhim bo'ldi. Lekin bu davrga xos me'morchilik yodgorliklari kam o'rganilgan. Bu davr yodgorligi shimoliy Afgoniston hududidagi Oy xonum yodgorligi shu davr memorligi o`zgarishlaridan dalolat beradi. Uning qurilishi uslubi antik san'at an'analarini asosida ishlangan pollari mazaika bilan pardozlangan.

Kapitel va ustunlar ham uning ko`rinishiga alohida fayz baxsh etgan. Grek - Baqtriya podisholigi davrida Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida me'morchilik komplekslari yuzaga keladi, shaharsozlik yangi davrini boshidan kechirdi. Me'morlikda yangi g'oyalalar rivojlandi, yangi yangi shaharlar barpo etildi. Shulardan biri Dmitriy asos solgan (P asr) Termiz (Demet-Termet o`zgarishida) shahri rivojlandi. Bu davrda ayniqsa Ellin san'ati ta'siri sezilarli darajadi bo'ldi. O`lkada ko`plab binolar qad ko`taradi. Bino qurishda ellin memoriy uslublari ishlatilgan. Jumladan ustun, kapitel ishlatilgan, pollarga mazaika yotqazilgan, ustunlar ko`p xollarda kapitellar bilan tugallangan. Grek-Baqtriya yerlarida mavjud shaharlar kengaytirildi, odamlar yashaydigan katta bo`lmagan aholi punktlari shaharga aylantirildi.

Yangi shaharlar aniq to`rtburchak yoki kvadrat shaklida qurilib, atrofi qalin devor bilan o`rab chiqildi, to`rtburchaksimon minoralar bunyod etnldi. Qurilgan binolarda serjilo korinf orderi keng qo'llanildi. Gresiya san'ati ta'siri shu davrda zarb etilgan tangalarda va ularga ishlangan bo`rtma tasvirlarda ham seziladi. Tangalarning old tomonida hukmdor (podishoh) xomiysi bo`lgan mobuda tasviri va yozuv mavjud, tanganing orqa tomonida esa hukmdorning aylana ichidagi bo`rtma tasviri yon tomonidan ishlangan.

Shuni takidlash kerakki bu tangalar yuzasidagi bo`rtma tasvirlar uslubi jihatidan yunon klassik san'ati an'analarida, eng avvalo Fidiy, Praksitel, Lissip ijodiga xos uslubda bajarilgan, jumladan Fidiyning Olimpdagi Zevs haykaliga taxlid qilish sezilarli Podisho bo`rtma tasvirlari real va haykaltarosh tasvirlanuvchi faqat o`xshatib qolmasdan balki uning harakterining ham ochishga intilganligi bilinadi.

M. Demetriy tasviri tushirilgan tangada Dimitriy harakteri va mavqi fil shakli bor bo`lgan bosh kiyimda tasvirlangan. Bu belgi podishoni Xindistoning zab etganligi va uning hukmdorligiga ishora hisoblangan. Gyaur qala saroyi qoldiqlari diqqatga sazovor. Bino an‘anaviy O`rta Osiyo uslubi - paxsadan qurish prinsipiga asoslangan bo`lib, devor yuzasi ganch bilan suvalgan. Asosiy xonalar, ayniqsa, qabul-xona nihoyatda serhasham bo`lib, u devoriy suratlar bilan bezatilgan, haykaltaroshlik asarlari ham xona fayzini oshirishga xizmat qilgan. Parcha va bo`laklarda yetib kelgan surat va haykaltaroshlik namunalari qoldiqlari shu davr san‘ati realizmi haqida gapirish imkoniyatini beradi. Ishlangan haykallarda tasvirlanuvchinnng etnik tipi, yoshi, harakterini ochishga intilish seziladi. Shu xususda, qal‘a xonalarining biridan topilgan.

O`rta Osiyoda nodir yodgorliklardan biri Tuproq qal‘a hisoblanadi. 12 m balandlikka ega bo`lgan sun‘iy tepalik ustiga qurilgan bu qal‘a to`rtburchak shaklida bo`lib, 500X350 m maydonni egallaydi. Maydon atrofi mustaxkam devor bilan o`rab chiqilgan. Qal‘aning shnmoli-G_arbidagi burchak tomonda Xorazm shohlarining saroylari joylashgan. Saroyning mahobatli uch minorasi esa butun qal‘a ko`rinishiga mustaxkamlik baxsh etgan, uning jiddiy bo`lib ko`rinishini ta‘minlagan. Tuproqqa l‘a xonalari bir xil emas. Tor yo`lakchalar egri ravoqlar bilan yopilgan, aksincha, katta xonalar nur-quduqlarga ega bo`lgan, mustaxkam ustunlar esa xona kengligini oshirish uchun, uzun to`slnarga mustaxkamlik berish yoki ularni o`zaytirish uchun ishlatilgan. Saroy xonalari haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Qabulxona (mexmonxona) serbezak bo`lgan. Devoriy surat va bo`rtma tasvirlar xonaning ko`rkam va go`zalligini oshirgan. Loydan yasalgan haykallar devor bo`ylab qilingan supachalarga o`rnatilgan. Supachalar jimmador panjaralar bilan alohida seksiyalarga ajratilgan. Har bir seksiyada mustaqil haykaltaroshlik kompozitsiyasi bo`lgan. Bu haykallar qisman saqlanib qolgan. O`tirgan xolda tasvirlangan podshohlar (natural o`lchamdan ikki marta katta), yon tomondan turgan xolda tasvirlangan erkak, ayol va bolalarning haykali qo`yilgan. «Suvoriylar (jangchilar) zali» deb nomlangan xona devorida qoldirilgan tokchalarda

podshohlar haykali qo`yilgan. Devor oldida esa qo`lida qurol ushlab turgan jangchilar haykali bo`lgan. «Jayiqlar zali» deb nomlangan xonada o`simliklar, pastroq tomonda natural kattalikda kiyiklarning bo`rtma tasviri - barelefi ishlangan. Tuproqqa'ladi kichik xonalar faqat devoriy suratlar bilan bezatilgan. Shunday xonalardan birining devoriga ishlangan arfa chaluvchi qiz surati bizgacha birmuncha yaxshi saqlangan. Qushonlar davri Markaziy Osiyo xususan O`zbekiston tarixida muhim o`rin egalladi. Bu yerda me`morchilikda avvalgi davr an`analari davom qildi, shu bilan birga yangi an`analalar rirojlandi. Saroylar, zardushtiylik va buddaviylik dinlari bilan bog`liq memoriy majmualar yaratildi, fuqorolar turar joylari murakkaablasha bordi, ularning estetik jihatlariga etibor ortdi. Shaharsozik borasida ishlar amalga oshirildi.

Bu davrda O`rta Osiyo yerlarida qator shaharlar paydo bo`ldi. Bu davrda shahar qurilishi ham avj oladi. Shahar hokimlari, boy zadogonlar va amaldorlarning saroylari va uylari hashamatli bo`lishiga etibor berildi. Uning go`zal bo`lishi uchun haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak beradilar. Dalvarzin tepa Qushon davlatining muhim shaharlaridan bo`lib bu yerda buddizm dini bilan bog`liq ibodatxona, stupa bo`lgan. Ibodatxona serhasham bo`lib unda baqtriya mabudasi haykali bo`lgan. Bino bezagida akanf bargi antefiks va bezakdor ustunlar keng qo`llanilgan.

Ayritomdan (Termiz yaqinidan) topilgan toshdan ishlangan releflar va so`nggi qushon davlati memorligining harobalari bu yerda buddizm keng yoyila boshlaganligini ko`rsatadi. Ayritomdagagi ibodatxonaga kiraverish tomonga karniz tarzida ishlangan friz karnizlarda akanf barglari orasida yarim belgacha tasvirlangan qo`shnay, nog`ora (baraban), lyutna va arfa chalayotganlar sozandalar tasvirlangan (ular 14 ta). Buddizm dini bilan bog`liq me`morchilik majmualar, monastir va ibodatxonalar O`zbekistonning janubiy tomonlarida keng tarqaldi. Eski Termiz yaqinidagi "Zurmala qal'a" me`morlik koldigi shu o`rinda muhimdir, to`rtburchak shakldagi taglikka tepa tomoni yarimsferik tarzda tugallangan silindrik stupa qurilgan. Minoraning qozon shaklidagi tepa va silindrik shaklidagi asosiy ustun

qismi chegarasi karniz bilan ajratilgan. Minoraning tagi, tepadagi yarim aylana shaklidagi qismni esa qizil tosh, plitalari bilan pardozlangan. Minoraning asosii ustun qismi esa pishiq g`isht bilan pardozlangan bo`lish extimoli bor.

Qushon davrda shahar qurilishini avj olishida grajdani memorligi ham alohida o`rinni egalladi. Shahar hokimlari, boy zadogonlar va amaldorlarning saroylari va uylari hashamatli bo`lishiga etibor berildi. Uning go`zal bo`lishi uchun haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak beradilar. Xolchayonda (Surxondaryo) saklanib qolgan arxeologik topilma e`tiborga loyiq. Bu yerda bino sharqqa karab qurilgan bo`lib uning old tomonida 6 ustunli ayvon bo`lgan. U yerdan asosiy xona - katta zalga va ikki ustunli xonaga kirilgan. Bino ham g`ishtdan qurilgan. Ustunlar yog`ochdan ishlangan bo`lib ular tosh taglikka urnatilgan. Binoning tomi tekis yopilgan bo`lib tom chekkalari esa cherepitsa ham antefikslar bilan bezatilgan. Xonalar devoriy surat va haykallar bilan bezatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ojegov S.S., O`ralov A.S., Rahimov K.J. Landshaft arxitekturasi va dizayn. Samarqand, 2003.
2. Uralov A. Markaziy Osiyoning islomgacha davridagi bog`-parklari va ularning keyingi davrlardagi izchilligi. Me`morchilik va qurilish muammolari. 2001. № 2.
3. .Pugachenkova G.A. Iz xudojestvennoy sokroviishnisyi Srednego Vostoka. T., 1986.
4. Bulatov M.S. Sadы i parki Temura i Temuridov – Maskan, 2001, № 7.
5. Begaliyev N. Samarqand darvozalari – Zarafshon gazetasi. 1996 y. 3-fevral soni.